

## **GENDERLIK TENGLIK TUSHUNCHASI VA GENDER TENGLIKNI TA’MINLASHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

**Faxriddinova Nargiza Shamsiddinovna**

*Mahalla va nuroniyarlarni qo ‘llab-quvvatlash vazirligi bosh yuriskonsulti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Genderni hisobga olish va genderni o‘zida ifodalash tushunchalarini farqlash lozimligi va gender va jins tushunchalari genderlikni ta’minlashning asosiy tamoyillari haqida batafsil to’xtalib o’tamiz.

**Kalit so’zlari:** Gender, jins, biologik, ijtimoiy, gender barqarorlik, identifikator.

Tadqiqotni boshlashdan avval gender tushunchasiga aniqlik kiritish maqsadga muvofiq deb bildik. Gender – bu erkaklik va ayollik bilan bog‘liq muayyan xususiyatlar majmui (erkaklar yoki ayollarga tegishli bo‘lgan fazilatlar). Gender va jins tushunchalari bir xil emas. Jins biologik tushuncha, gender yesa ijtimoiy tushunchadir.

Klassik qarashlar tizimida gender tizimi binar tizim sifatida qaraladi: erkak (ota, boquvchi, jangchi) yoki ayol (ona, beka). Ularning har biri tashqi atributlar va ichki fazilatlar, sevimli mashg‘ulotlar va ijtimoiy funksiyalarning o‘ziga xos to‘plamiga ega. Biroq, zamonaviy tadqiqotchilar genderlarning ko‘pligini e’tirof etishadi. Shuningdek, bola tug‘ilganidanoq uning genderi belgilanmaydi, yoki kattalar uni aniqlamaydi, balki bolaning o‘zi yoshi ulg‘ayishi va o‘zini anglay boshlashi bilan yaratiladi. Buni gender tadqiqotchi klinik psixolog Diana Erenzaft ham ta’kidlaydi.

Yelya universiteti gender pediatriya dasturi direktori Doktor Kristi Olezeski bolalar bilan uning jinsi haqida gaplashib boshlash uchun hech qachon erta sanalmaydi. Ikki yoki uch yoshda, bola birinchi marta o‘zini anglay boshlaydi va o‘zini o‘g‘il yoki qiz sifatida taniy boshlaydi. Shuning uchun ota-onalar o‘z farzandlariga jins haqida ko‘proq gapirib, gender stereotiplari bilan shug‘ullanishga yordam bersalar yaxshi bo‘ldi. Buning yo‘llari quyida keltirilgan.

Genderni hisobga olish va genderni o‘zida ifodalash tushunchalarini farqlash lozim. Chunki odamlar ko‘pincha ularni chalkashtirib yuborishadi, deydi doktor Erenzaft. Gender identifikatori insonning ichki hissiyotidir: ma’lum bir jinsning vakili sifatida: erkaklar, ayollar yoki ulardan ikkalasi ham emas. Shu bilan birga, gender identifikatori atrofdagi odamlarning uni qanday tasavvur qilishlariga mos kelmasligi ham mumkin. Masalan, ayol kishi o‘zida erkaklardan ham kuchli hissiyotlarni, anglashlarni his etishi mumkin. Uni atrofdagi insonlar ayol deb tanishsa ham u o‘zligida erkaklik his qiladi. Jinsiy o‘z-o‘zini ifodalash-bu inson o‘zini tashqi dunyoga kiyim, mashg‘uloti yoki ismi orqali taqdim etish usulidir.

Ko‘rinadiki, gender identifikatori har doim ham gender ifodasi bilan mos kelmaydi. Misol uchun, qiz bola jinsiy identifikatoriga ega bo‘lgan bola, odatda,

"erkak" xatti-harakatlar orqali, masalan, mashinalar bilan o'ynash orqali o'zini ifodalashi mumkin.

Olezeskining ta'kidlashicha, bolalar o'zlarini sog'lom ifodalashda erkinlikka muhtoj va agar ularning atrofidagi kattalar gender identifikatori va o'z-o'zini ifodalash o'rtasidagi farqni bilmasa, bu nizolar va tushunmovchiliklarga olib kelishi mumkin. Qisqacha aytganda, ota-onalar ko'pincha ikkita tushunchani chalkashtirib yuborishadi: ular qiz bola kiyimidagi o'g'il bola transgender (o'g'il bolasifati qiz) bo'lishi mumkin deb o'ylashadi. Lekin bu butunlay boshqacha holat bo'lishi mumkin. Ya'ni bu faqat bolaning qiziqishi va bilan bog'liq holat ekanligini unutmaslik lozim. Ushbu muammoning tuzilishi, mazmuni va ahamiyati to'g'risida gapirishdan oldin, gender tushunchasining o'ziga to'xtash zarur. Gender – inglizcha "gender" – "zot" so'zidan olingan bo'lib, jins tushunchasini fiziologik voqelik ustuzilmasi bo'lgan ijtimoiy tuzilma sifatida qaraladi. Jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi universal biologik farq bo'lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, ya'ni individning biologik jinsga – erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo'ladigan biologik belgilardan birligidir. Erkaklar va ayollar o'rtasidagi jiddiy bo'lмаган farqlar ularning biologik xususiyatlariga taalluqlidir. Biroq erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlardan tashqari, o'z tabiatiga ko'ra biologik sabablarga asoslanuvchi ko'plab farqlar bor, ya'ni ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti-harakat va individlarning psixologik tavsiflarida ko'plab farqlar mavjud. Ta'kidlanganidek, erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollar xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy tavsiflarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan. Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiyligi ma'noda ikki tushuncha – biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Kundalik hayotimizda jins bilan bog'lanmagan ko'plab tushunchalar "erkaklarga xos" yoki "ayollarga xos" deb hisoblanadi. "Erkaklarga xos" yoki "ayollarga" xos tushunchalarni aniqroq farqlash uchun "feminlik" (ayollik) va "maskulinlik" (erkaklik) tushunchalari qabul qilingan. Yangi tushunchalarning kiritilishi erkaklarga xoslik va ayollarga xoslikning biologik ziddiyatini bartaraf etish va e'tiborni turli madaniyatlar shakllanishining ichki mexanizmlarini gender nuqtai nazaridan ochishga qaratish imkonini berdi. Antropologlar, psixologlar va sosiologlar genderning biologik emas, balki ijtimoiy va madaniy jihatdan belgilanishi, madaniy va tarixiy jihatdan esa nisbiy ekanligini ta'kidlaydilar. Sofya Babayan bu haqda: "Gender ijtimoiy tushuncha. Ayol yoki erkakning benuqson timsoli berilgan, xronologik va geografik muhit rang-barangligi, milliy an'analari, etnopsixologiyasi, dini, tarixi va milliy mentaliteti va boshqalarda ifodalanadi" – deb yozadi.<sup>1</sup> Uning mazmuni, sharhi va ifodasi o'z ichida ham, madaniyatlararo ham o'zgardi hamda tarixiy o'zgarishlar ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

<sup>1</sup> E.Giddens Sotsiologiya. – T. "Sharq". 2002., 185-bet.

Gender tengligi mumkinmi? Ba'zi davlatlar (Daniya, Shvetsiya, Finlyandiya) bu savolga allaqachon javob berishgan va hodisani o'rganish asosida gender tengligini baholash mumkin bo'lган quyidagi tamoyillari ilgari surdilar:

- ayollarning mamlakat siyosiy va iqtisodiy hayotidagi ishtiroki;
  - har ikkala jins uchun ham teng ish haqi;
  - oilada tug'ilgan bolani parvarish qilish uchun erkaklarga ta'til berish;
  - ish joyida kamsitishning yo'qligi, martaba zinapoyasiga ko'tarilishda, har qanday kasbni egallahda;
  - agar xohlasangiz, jinsn o'zgartirish.
- Ijtimoiy omillar – yosh, toifa, irq va kelib chiqishi – alohida gender mazmuni, ifodasi va tajribasini tashkil etadi.<sup>2</sup> Zamonaviy jamiyatshunoslik izchillik bilan va samarali tarzda ushbu tushunchani ijtimoiylik hamda uning shakllarini tahlil qilish borasidagi muhim asoslardan biri sifatida ishlab chiqmoqda.

“Gender” tushunchasining mazmuni avvalo jinsnij timoiy modellashtirish yoki tashkil etishda mujassamlashgan. Ijtimoiy jins ijtimoiy amaliyot yordamida tashkil qilinadi. Jamiyatda muayyan jins rollarining bajarilishini taqozo etadigan xattiharakatlar me'yoriy tizimi vujudga keladi; tegishli tarzda ushbu jamiyatda “erkaklarga oid” va “ayollarga oid” bo'lgan xususiyatlar borasida qat'iy qaror topgan tasavvurlar qatori paydo bo'ladi. Gender – tabiatan belgilanmagan, ijtimoiy hodisalar ato etgan xususiyatlar yig'indisidir. Gender – jinsnij madaniy niqobi, bizning o'z ijtimoiymadaniy tasavvurlarimiz doirasidagi jins haqidagi qarashlarimizdir. O'zbekistonda ham Gender tenglik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 23-avgustda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi Qonun mamlakatimizda ushbu soha rivoji uchun ayni muddao bo'ldi. [2]

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni amalga oshirish chog'ida teng huquqlilikni kafolatlaydi. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni, sog'liqni saqlash, ta'lim, fan, madaniyat, mehnat va ijtimoiy himoya sohalarida, shuningdek davlat va jamiyat hayotining boshqa sohalarida teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanishini kafolatlaydi. Xotin-qizlar va erkaklar o'rtaida haqiqiy tenglikka erishish, jamiyat hayotining barcha sohalarida ularning ishtirokini kengaytirish, jins bo'yicha bevosita va bilvosita kamsitishni

<sup>2</sup> Mead M. Syex and Temperament threye Primitive Societiyes. 1935.

bartaraf etish hamda ularning oldini olish maqsadida davlat tomonidan gender siyosati amalga oshirilishini ta'minlashga doir vaqtinchalik maxsus choralar ko'riladi. Shaxslar ijtimoiy mavqeい, jinsi va boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlaridan qat'i nazar inson huquqlaridan bir xilda foydalana olishsa, gender tengligi yuzaga keladi.

Xulosa qilib ayatdigan bo'lsak, ba'zi mutaxassislar fikriga ko'ra, Gender tenglik tushunchasi G'arbdan kirib kelgan tushuncha sifatida e'tirof etiladi. Biroq bu qarash to'laqonli o'zini oqlamaydi. Sababi, islom olamida, xususan, muqaddas kitobimiz Qur'oni Karimda mazkur tushuncha ayni shu nom bilan atalmasa-da, mohiyatan shu masalani ochib beruvchi alohida suralar mavjud. (Mas, "Niso" – ayollar surasida, asosan, oila, turmush, meros masalalari, er-xotin huquqlari bayon etilgan). Gender tenglik uzoq tarixga ega bo'lib, diniy va dunyoviy olam bilan uzviy bog'liqligini anglatadi shuningdek o'z isbotini asrlar oshgan bo'lsada namoyon etib kelmoqda. Bugungi kunda Gender tenglik qoidalarining diniy va huquqiy asoslari mavjud bo'lib ularni rivojlantirish, takomillashtirish kelgusi avlodlarga mustahkam poydevor yaratishimiz jamiyatimiz barcha a'zolarining yagona maqsadiga aylanishi lozim.

### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Gadamer G. Istina i metod: Osnov filosofskoy germenevtiki. (Per. snem)/ Gans- Georg Gadamer. – M.: Progress, 1988.
2. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. –T. “O'zbekiston”, 2007.
3. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. –T. “O'zbekiston”. 2003.